

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI



**YURIDIK TEXNIKUMLARNI MUVAFFAQIYATLI TAMOMLAGAN
BITIRUVCHILARNI OLIY TA'LIM MUASSASALARIGA O'QISHGA
KIRISH IMTIHONINI O'TKAZISH VA BAHOLASH MEZONI
DASTURI**

60420100-Yurisprudensiya (faoliyat turlari bo'yicha) yo'nalishi uchun

Tuzuvchilar: A.A.Boltayev-BuxDU, Tarix va yuridik fakulteti dekani, s.f.n., dotsent

F.D.Muzaffarov – BuxDU, Yurisprudensiy va ijtimoiy-siyosiy fanlar kafedrası, f.f.d., dotsent

G'.A.Yangiyev - BuxDU, Yurisprudensiy va ijtimoiy-siyosiy fanlar kafedrası dotsenti, y.f.f.d.

Taqrizchilar: Sh.X.Baxronov – Buxoro viloyati adliya boshqarmasi birinchi o'rinbosari, 1-darajali adliya maslahatchisi, y.f.f.d.

Z.Amonov – advokat, y.f.f.d.

ANNOTATSIYA

Yuridik texnikumlarni muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilarni oliy ta'lim muassasalarining bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga suhbat asosida o'qishga qabul qilish tartibi to'g'risidagi nizomi asosida amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» 2019 yil 6 sentyabrdagi PF-5812-son Farmoni 3-bandiga muvofiq 2022/2023 o'quv yili qabulidan boshlab texnikumlarda o'rta maxsus ta'lim dasturlarini muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilar o'z sohasiga mos bakalavriat ta'lim yo'nalishlari bo'yicha kirish imtihonlarisiz yakka tartibdagi suhbat orqali oliy ta'lim muassasalarida 2-bosqichdan o'qishini davom ettirish huquqiga ega bo'lishi belgilandi.

ASOSIY QISM

1. Jinoyat huquqi.

Hayotga qarshi jinoyatlarning tushunchasi, turlari, umumiy tavsifi. Qasddan odam o'ldirish tushunchasi, turlari, jinoyat tarkibi. Javobgarlikni og'irlashtiradigan holatlarda qasddan odam o'ldirish uchun javobgarlik. Yengillashtiruvchi holatlarda qasddan odam o'ldirganlik uchun javobgarlik. Ehtiyotsizlik orqasida odam o'ldirish. O'zini o'zi o'ldirish darajasiga yetkazish. O'zini o'zi o'ldirishga undash.

Badanga shikast yetkazish tushunchasi, uning tahlili va turlari. Qasddan badanga og'ir shikast yetkazish. Qasddan badanga o'rtacha og'ir shikast yetkazish.

Yengillashtiruvchi holatlarda badanga shikast yetkazganlik uchun javobgarlik. Qasddan badanga yengil shikast yetkazish. Qiynash. Ehtiyotsizlik orqasida badanga o'rtacha og'ir yoki og'ir shikast yetkazish.

O'ldirish yoki zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitish. Tanosil yoki OIV kasalligi/OITSni tarqatish. Jinoiy ravishda homila tushirish (abort). Ayolni o'z homilasini sun'iy ravishda tushirishga majburlash. Kasb yuzasidan o'z vazifalarini lozim darajada bajarmaslik. Xavf ostida qoldirish.

Nomusga tegish. Jinsiy ehtiyojni zo'rlik ishlatib, g'ayritabiiy usulda qondirish. Besoqolbozlik (erkakning erkak bilan jinsiy aloqa qilishi). Ayolni jinsiy aloqa qilishga majbur etish.

Davlatga xoinlik qilish. O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga tajovuz qilish. O'zbekiston Respublikasining konstitusiyaviy tuzumiga tajovuz qilish. Josuslik.

Qo'poruvchilik. Davlat sirlarini oshkor qilish. Davlat siri yoki harbiy sir hisoblangan hujjatlarni yo'qotish.

2. Jinoyat protsessual huquqi.

Jinoyat-prosessual huquqi tushunchasi, umumiy tavsifi. Jinoyat-prosessual huquqi manbalari. Jinoyat prosessi bosqichlari va funksiyalari. Jinoyat-prosessual qonunining vaqt, hudud va shaxslar bo'yicha amal qilishi. Jinoyat prosessi prinsiplari tushunchasi va tizimi. Jinoyat prosessi prinsiplari tasnifi. 1. Jinoyat ishini yuritishga mas'ul bo'lgan davlat organlari va mansabdor shaxslar. Jinoyat ishini yuritishda ishtirok etuvchi jamoat birlashmalari va jamoalar. Jinoyat prosessida o'z manfaatlarini himoya qiluvchi shaxslar. Himoyachilar va vakillar. Jinoyat prosessida ishtirok etuvchi boshqa shaxslar. Jinoyat prosessi ishtirokchilarini rad qilish uchun asoslar. Jinoyat ishini yuritishga mas'ul bo'lgan shaxslarni rad qilish. Ekspertning, mutaxassisning, tarjimonning, xolisning ishda ishtirok etishiga monelik qiladigan holatlar. Rad qilish va o'zini o'zi rad etish hamda ularni hal qilish tartibi. Dalillar va isbot qilish tushunchasi. Isbot qilish predmeti. Dalillar tasniflanishi va ularning amaliy ahamiyati. Dalillarni to'plash usullari tushunchasi. Dalillarni to'plash usullarining tasnifi. Prosesual majburlov tushunchasi, mohiyati. Prosesual majburlov choralari tasnifi

3. Davlat va huquq nazariyasining umumiy xususiyatlari.

Davlat va huquq nazariyasi predmeti va metodlari. Davlat va huquq nazariyasi fani tizimi, vazifasi va boshqa fanlar bilan aloqadorligi. Davlat va huquq nazariyasi umumnazariy ijtimoiy fan. Davlat va huquning kelib chiqishining tarixiy rivojlanish bosqichlari. Davlat va huquqning kelib chiqishida muhim bo'lgan omillar tahlili. Davlat tushunchasi, belgilari, mohiyati va tiplari xususida ma'lumotlar. Davlat funksiyalari va ularning tahlili. Davlatning mohiyati haqida nazariy fikrlar. Jamiyat va davlat munosabatlari tahlili. Davlat shakllari va ularning tizimli tahlili. Davlat mexanizmi va uni amalga oshirish shakllari.

Huquq nazariyasi xususida umumiy fikrlar tahlili. Huquqning tabiati va uning asosiy belgilari. Ijtimoiy munosabatlar va huquq uzviyligi. Huquqiy ong va huquqiy

madaniyat. Huquq normalari va ularning amaliy, nazariy tahlili. Huquq prinsiplari tasnifi. Huquq shakllari va manbalari tahlili. Huquq ijodkorligi xususiyatlari. Huquq tizimi va huquqiy tizim xususida fikrlar. Huquqiy odat. Huquqiy president. Huquqiy munosabatlar tizimi. Normativ-huquqiy hujjatlar tushunchasi va tahlili. Musulmon huquqining manbalari. Huquq normalarini sharhlash. Huquqiy xulq-atvor. Huquqiy va yuridik javobgarlik. Huquqiy tartibga solish mexanizmi. Qonuniylik va huquqiy tartibot. Fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat. Davlat va huquq nazariyasi dolzarb muommolari tahlili. Milliy qonunchilikning ustuvor vazifalari tahlili. Davlat va huquqning rivojlanish istiqbollari.

4. Konstitutsiya va uning nazariy hamda amaliy xususiyatlari

O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi tizimi. Inson huquq va erkinliklari, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, davlat suvereniteti tushinchalari tahlili. Demokratiya, erkinlik va tenglik, ijtimoiy adolat va birdamlik g'oyalari mazmun-mohiyati hamda tahlili. Xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsip va normalari tahlili hamda uning konstitutsiyaviy tahlili. Xalq hokimiyatchiligi va uning mazmun-mohiyati. Konstitutsiya va qonunning ustunligi tahlili. Tashqi siyosat va uning asosiy tamoyillari. Inson va fuqaroning asosiy huquqlari. Inson va fuqaroning erkinliklari. Inson va fuqaroning burchlari. Inson va fuqaroning burchlari. Fuqarolik tushunchasi va mazmun-mohiyati. Shaxsiy huquq va erkinliklar tizimi. Siyosiy huquqlar. Iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ekologik huquqlar. Inson hamda fuqaroning huquq va erkinliklari kafolatlari. Jamiyatning iqtisodiy negizlari. Fuqarolik jamiyati institutlari. Oila, bolalar va yoshlar. Ommaviy axborot vositalari. O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy tuzilishi. Qoraqalpog'iston Respublikasi xususida konstitutsiyaviy normalar tahlili. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi xususida konstitutsiyaviy normalar tahlili. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti xususida konstitutsiyaviy normalar tahlili. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi xususida konstitutsiyaviy normalar tahlili. Mahalliy davlat hokimiyati asoslari. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari. Saylov tizimi xususida

konstitutsiyaviy normalar tahlili. Sud hokimiyati xususida konstitutsiyaviy normalar tahlili. Advokatura xususida konstitutsiyaviy normalar tahlili. Prokuratura xususida konstitutsiyaviy normalar tahlili. Moliya, pul va bank tizimi xususida konstitutsiyaviy normalar tahlili. Mudofaa va xavfsizlik xususida konstitutsiyaviy normalar tahlili.

5. Huquqiy ko'nikmalar va metodologiya

Yuridik fan tushunchasi, fanga oid ilmlar strukturasi. Yuridik fan obyekt va predmeti. Yuridik fan ilmlari shakllari va darajalari. Yuridik fan metodologiyasi. Mantiqiy fikrlashning omillari, talab va mezonlari. Mantiqiy fikrlashni rivojlantirish usullari. Yurist faoliyatida mantiqiy fikrlashning roli. Fikrni mantiqiy ifoda etish usullari va talablari. Yuridik faoliyatda deduktiv, induktiv va analogiya bo'yicha xulosa chiqarishning ahamiyati. Yuridik argumentatsiya. Yuridik asoslashning yurist faoliyatidagi roli. Huquqni izohlash va anglashda konseptual yondashuvlar. Huquq klassifikatsiyasining metodologik ahamiyati. Huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati. Huquq normalarining metodologik muammolari. Maqsadni to'g'ri shakllantirishning zaruriy talablari. Yurist kar'erasini rejalashtirishda «SMART» texnologiyasining qo'llanilishi. Yurist faoliyatida tashabbuskorlik, kreativlik va masalaga ijodiy yondashuv. Taym-menejment: o'qish va ishda vaqtni samarali boshqarish usullari. Omma oldidagi nutq va uning ta'sirchanligini ta'minlovchi omillar. Notiqlik uslublari va yuridik nutq turlari. Huquqshunos nutqini tayyorlash va uni so'zlash talablari. Auditoriya diqqatini jalb etish usullari. Yurist nutqi sifatiga ijobiy va salbiy ta'sir etuvchi omillar. Tanqidiy fikrlash ko'nikmasi va uning mazmun-mohiyati. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish fazalari. To'g'ri qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirish. To'g'ri qaror qabul qilishni shakllantirish metodlari. Huquqiy ongning strukturaviy-funksional tarkiblari. Huquqiy ongning mazmuniga oid xarakteristikasi. Huquqiy ong deformatsiyasi va turlari. Huquqiy etika tushunchasi. Uni tashkil etuvchi xususiyatlar. Huquqshunos faoliyatida axloqiy sifatlarning roli. Adolat, kasbga sadoqat, mas'uliyat va halollik – huquqshunos kasbining muhim talablari.

Manfaatlar to'qnashuvi va yuridik faoliyatda unga yo'l qo'yib bo'lmasligi. Yuridik kasb egalarining professional javobgarligi. Kasb axloqi tushunchasi. Umumiy va xususiy jihatlar. Advokat rioya etadigan axloqiy qoidalar. Tergov va prokuratura organlari xodimlari faoliyatining axloqiy talablari. Sud'yalik kasbida xolislik, adolatparvarlik, halollik prinsiplari. Yuridik hujjatlarni rasmiylashtirishning umumiy qoidalari. Hujjatlashtirishni tizimlashtirish. Fuqarolik-huquqiy munosabatlari bo'yicha alohida hujjatlarni rasmiylashtirish qoidalari. Majburiyatlarning bajarilishini ta'minlash bo'yicha hujjatlarni rasmiylashtirish.

6. Fuqarolik huquqi

Fuqarolik huquqiga kirish tushunchasi. Fuqarolik huquqi xususiyatlari va boshqa huquq sohalari bilan aloqadorligi. Fuqarolik huquqining tamoyillari, fuqarolik huquqining funksiyalari. Fuqarolik huquqi tizimi. Fuqarolik huquqi manbaalari tushunchasi va turlari. Fuqarolik qonunlarining vaqt, hudud va shaxslar bo'yicha amalda bo'lishi. Qonun analogiyasi va huquq analogiyasi. Fuqarolik-huquqiy normalarni sharhlash va ularning turlari. Fuqarolik-huquqiy munosabat tushunchasi va mohiyati. Fuqarolik-huquqiy munosabatlarning turlari. Fuqarolik huquqlari va burchlarining kelib chiqish asoslari. Yuridik faktlar. Fuqarolik huquqlarining amalga oshirilishi va burchlarining bajarilishi. Fuqarolik huquqlarini himoya qilish. Fuqarolik huquq layoqati va muomila layoqati. Vasiylik va homiylik. Yuridik shaxs tushunchasi va belgilari. Yuridik shaxsning huquq layoqati va muomila layoqati. Yuridik shaxsning turlariga umumiy tasnif. Davlatning fuqarolik huquq layoqati. Fuqarolik huquqi obyektlari tushunchasi va tasniflanishi. Fuqarolik huquqi obyektlarining turlari a) moddiy ne'matlar b) nomoddiy ne'matlar. Bitim tushunchasi va turlari. Bitimlarning muddatlari va shartli bitimlar. Bitimning shakllari. Bitimlarning haqiqiy sanalash shartlari. O'z-o'zidan haqiqiy sanalmaydigan bitim turlari va ularning huquqiy oqibatlari. Vakillik tushunchasi. Muddatlar tushunchasi va ahamiyati. Muddatlarning turlari. Muddatlarni hisoblash asoslari va tartibi. Da'vo muddati tushunchasi va ahamiyati. Da'vo muddatining

ahamiyati. Da'vo muddatining turlari. Da'vo muddatining o'ta boshlashi. Da'vo muddatining o'tishining to'xtatilishi, uzilishi va da'vo muddatining tiklanishi. Da'vo muddatining o'tishining oqibatlari. Da'vo muddati joriy qilinmaydigan talablar. Mulk huquqi tushunchasi va mazmuni. Ashyoviy huquqlar. Mulk huquqining vujudga kelish va bekor bo'lish asoslari. Xususiy mulk huquqining tushunchasi. Xususiy mulk huquqining subyektlari va obyektlari. Xususiy mulk huquqining himoya qilish kafolatlari. Ommaviy mulk huquqi tushunchasi va mabalari. Umumiy mulk huquqi tushunchasi va turlari. Majburiyatlarning bajarilishini ta'minlash tushunchasi. Neustoyka. Garov. Ushlab qolish. Kafillik. Kafolat. Zakalat.

7. Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar

Sud organlari tizimi, odil sudlov tushunchasi, mazmun-mohiyati. Huquqni muhofaza qiluvchi organlar tizimi va vazifalari. Sudning asosiy vazifalari va ularning tahlili. Sud organlari faoliyatining asosiy prinsiplari tahlili. Aybsizlik prezumpsiyasi tushunchasi mazmun-mohiyati. Harbiy sudlar sudloviga taalluqli ishlar tahlili. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi faoliyatining asosiy yo'nalishlari tahlili. Fuqarolik ishlari bo'yicha sud organlari faoliyatining asosiy yo'nalishlari tahlili. Jinoyat ishlari bo'yicha sud organlari faoliyatining asosiy yo'nalishlari tahlili. Iqtisodiy ishlari bo'yicha sud organlari faoliyatining asosiy yo'nalishlari tahlili. Ma'muriy sud ish yurituvining asosiy yo'nalishlari tahlili. Sudyalarni saylash va tayinlash tartibi. Sudyalarning intizomiy javobgarligi. Sudyalar Oliy kengashi faoliyati.

O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlarining asosiy vazifalari. Prokuratura organlari faoliyatining asosiy yo'nalishlari tahlili. Prokuratura organlarini tashkil etish va ular faoliyatining asosiy prinsiplari. Prokuratura organlarining tizimi. Prokuror nazorati hujjatlarining turlari va ularning mazmun-mohiyati. Ichki ishlar organlarining asosiy vazifalari tahlili. Ichki ishlar organlari faoliyatining asosiy yo'nalishlari tahlili. Ichki ishlar organlari faoliyatining asosiy prinsiplari. Ichki ishlar organlarining tizimi. Ichki ishlar organlari xodimlarining

maxsus unvonlari. Ichki ishlar organlari xodimlarini ijtimoiy himoya qilish tartibi. Davlat xavfsizlik xizmatining asosiy vazifalari. Davlat xavfsizlik xizmati huquqiy maqomi va faoliyatining asosiy yo'nalishlari. Davlat xavfsizlik xizmati faoliyatining asosiy prinsiplari tahlili. Davlat xavfsizlik xizmati tizimi. Davlat xavfsizlik xizmatining huquq va majburiyatlari. Adliya organlari faoliyatining asosiy yo'nalishlari tahlili.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar

Asosiy adabiyotlar. (darsliklar, o'quv qo'llanmalar)

1. Sh.A.Saydullayev. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik. – T.: TDYUU, 2018. – 220 bet.
2. X.T.Odilqoriyev. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik. – T.: Adolat, 2018. – 528 bet.
3. Mualliflar jamoasi. Huquqiy ko'nikmalar va metodologiya. Darslik. – T.: TDYUU, 2018.
4. I.B.Zokirov. Fuqarolik huquqi. Darslik. 1-qism – T.: TDYUU, 2009. – 611 bet.
5. Jinoyat-protsessual huquqi (Umumiy qism). Darslik. Mualliflar jamoasi // - Toshkent: TDYU nashriyoti, 2017. <https://library.tsul.uz/category/jinoyat-protsessual-huquqi>.
6. Jinoyat-protsessual huquqi (Maxsus qism). Darslik. Mualliflar jamoasi // - Toshkent: TDYU nashriyoti, 2018. 391-408-betlar. <https://library.tsul.uz/jinoyat-protsessual-huquqi-maxsus-qism-2018>.
7. C.Sahaddinov. O'zbekiston Respublikasi jinoyat-protsessual kodeksiga sharhlar. Umumiy qism. –T.: Yangi asr avlodi, 2014. -10-54. <https://library.tsul.uz/uzbekiston-respublikasi-zhinoyat-protsessual-kodeksiga-shar-umumij-ism-sahaddinov-s-2014/>
8. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. - T.: Adolat, 2021.
9. M.Usmonaliyev, P.Bakunov. Jinoyat huquqi (Umumiy qism). Darslik. - T.: Yangi asr avlodi, 2010. - 662 b.
10. M.X.Rustamboyev. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga sharhlar. Umumiy qism. -Toshkent: "Adolat", 2016. - 608 b.

Normativ huquqiy hujjatlar.

1. O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 9 yanvardagi "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi PF-5618-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/-4149765>
3. O'zbekiston Respublikasining Sudlar to'g'risidagi qonuni. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.07.2021-y., 03/21/703/0723-son
4. O'zbekiston Respublikasining Prokuratura to'g'risidagi qonuni. 29.07.2001-y., Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son.
5. O'zbekiston Respublikasining Ichki ishlar to'g'risidagi qonuni. 2016 yil 16 sentyabr. O'RQ-407-son. Toshkent. <https://lex.uz/acts/-3027843>
6. O'zbekiston Respublikasining Ichki ishlar to'g'risidagi qonuni. 2018 yil 5 aprel. O'RQ-471-son. Toshkent. <https://lex.uz/acts/-3610935>

**YURIDIK TEXNIKUMLARNI MUVAFFAQIYATLI TAMOMLAGAN
BITIRUVCHILARNI OLIY TA'LIM MUASSASALARIGA O'QISHGA
KIRISH SINOVLARI BAHOLASH MEZONLARI**

Yuridik texnikumlarni muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilarni oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirish sinovlari suhbat shaklida o'tkaziladi va 4 tadan savol bo'ladi. Har bir savolning javobi eng ko'pi bilan 25 ballga baholanadi, jami 100 ball.

Abituriyentning suhbatdagi javobiga qo'yiladigan talablar	Baholash ballari
a) berilgan savolni to'liq bilsa, uning mohiyatini tushunsa, u bo'yicha ijodiy fikrlay olsa, tasavvurga ega bo'lsa, mustaqil mushohada yurita olsa, nazariy masalalarni amaliyot bilan bog'lay olsa, xulosa va qaror qaror qabul qilsa, o'z fikrini tg'liq, ravon qila olsa, savol mohiyatiga kreativ (ijodiy) yondashsa, mustaqil fikri asosida xulosalar chiqara olsa.	22-25
b) berilgan savolni yetarli darajada bilsa, uning mohiyatini tushunsa, savol yuzasidan tasavvurga ega bo'lsa, mustaqil mushohada yurita olsa, nazariy masalalarni amaliyot bilan bog'lay olsa, savolining nazariy va amaliy jihatlarini yetarlicha ochib bera olsa, o'z fikrini to'liq, ravon bayon qila olsa, savol mohiyatiga kreativ (ijodiy) yondashsa, xulosalar chiqara olsa.	19-21
d) berilgan savolni qisman bilsa, u to'g'risida qisman tasavvurga ega bo'lsa, uning mohiyatini tushunsa, savol bo'yicha o'z fikrini bayon qila olsa, grammatik xatolarga yo'l qo'ysa, qisman xulosalar chiqarsa.	14-18
e) berilgan savolni yaxshi bilmasa, u to'g'risida qisman tasavvurga ega bo'lmasa, o'z fikrini to'liq bayon qila olmasa va umuman javob bermasa.	0-13

Apellyatsiya tartibi

Abituriyentlar tomonidan mutaxassislik fani imtihon natijalari bo'yicha universitet qabul komissiyasining apellyatsiyalar bilan ishlash hay'atiga natijalar e'lon qilingandan kundan boshlab 24 soat davomida murojaat qilishlari mumkin. Murojaat mazmunida faqat o'zining ballari haqida bo'lsa qabul qilinadi, boshqa abituriyentlar haqida yozilgan shikoyat arizalari qabul qilinmaydi.